MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari..... 1073 Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi 1076 Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari 1081 Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari 1084 Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari 1091 Adizova Nigora Baxtiyorovna Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida) 1096 Almuratova Gulbaxor Mansur qizi Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli 1100 Ashirov Abdurashid Ravshanovich Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili 1106 Axadova Mahliyo Xalimovna Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students.. 1109 Bakhtiyor Suvonkulov Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati 1113 Daminova Shoxista Farxodovna Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir 1117 Dilmurod Alimov Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari 1121 Ergashov Ma'murjon Mominjonovich Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari 1125 G. Sh. Tursunova 6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar 1130 G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish 1138 Inadullayeva Sevara Qahramonovna Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar 1141 Isabayeva Asida Yusufjonovna Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari..... 1146 Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida..... 1149 Jabbarbergenova Bibimaryam Amangeldiyevna Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups..... 1155 Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati 1160 Kaljanov Damir Maxsetbayevich Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions 1165 Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish 1171 Komilova Farog'at Numonjon qizi Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni..... 1176 Marimbayeva Bibidona Rinat qizi Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi 1180 Matchanova Malika Maxmudovna Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda 1183 Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li
-------------------------------------	--



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
<i>N. Sh. Djumaniyazova</i>	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
<i>Nazarova Mohinur Atxam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi.....	1195
<i>Nishonova Durdona Olimjon qizi</i>	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
<i>Nuridinova Gulnigor Taxirjanovna</i>	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
<i>Otahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi.....	1210
<i>Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
<i>Qurbonova Asal Dilshod qizi</i>	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
<i>Safarova Madina Azamat qizi</i>	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
<i>Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
<i>Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi</i>	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
<i>Sherov Dilshod Reyimberganovich</i>	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
<i>Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi</i>	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
<i>Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
<i>Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari.....	1247
<i>Xayitov Jonibek Xolboboyevich</i>	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
<i>Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	1254
<i>Axmedov Akmal Yusufovich, Muhammadjonova Zarnigor Shokirjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod va vositalar	1258
<i>Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Samandarova Shahnoza</i>	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari.....	1262
<i>G. Sh. Tursunova</i>	
Professional Needs of Deputy Directors at Secondary Schools.....	1266
<i>Jambilov Nurillo Xabibilloevich</i>	
Virtual reallik texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	1269
<i>Mamadjonova Nozima Adhamovna</i>	
AI or Corpus: Which is Better for Teaching English Vocabulary?	1272
<i>Munajat Sultonova</i>	
O'quvchilarni kasbga yo'nal tirishning pedagogik asoslari	1275
<i>Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna</i>	
Ingliz tilida talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish misolida)	1278
<i>Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiya: o'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Cad, 3D modellashtirish, VR) roli	1281
Tadjiyeva Feruza Muxtarovna	
Raqamli ta'lim ekotizimi: AKT asosida axborot-ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalarni joriy etish tajribasi	1286
Toshkentov Akmal Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1290
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi	
Теория коммуникации как методологическая основа изучения трансформации языковой нормы в эпоху цифровых медиа.....	1294
Дилшодбеков Темур Дилшодбек угли	
Значение усвоения учебных материалов в процессе формирования биологических понятий у учащихся.....	1297
У. О. Шарибаева	
Specifics of Teaching Professional Terminology to Students of Economic Specialties	1301
Хамдамов Рамзбек Мадаминжонович	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	1306
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	1311
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarning kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladi qaraqalpaq adbiyati sabafiginda qollanilgan abzalliqdari	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarning mustaqil ish loyihagini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarning o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishida nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Media to'garaklarini gospital ta'limda tashkil etishga oid xorijiy tajribalar tahlili..... 1469 Abduraximova Nozimaxon Baxadirovna
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi..... 1475 Abduraxmonova Noila Nasim qizi
	Raqamli transformatsiyaning mohiyati, xususiyatlari va sotsiomadaniy jarayonlarga ta'siri..... 1479 Bakirov Otabek Bo'ranovich
	Ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiiq qilishning optimal shakl va usullari..... 1484 Eshboyev Shoira Azamatovna
	Singapur, Angliya, Rossiya va O'zbekiston o'quv dasturlarida o'qish savodxonligi yondashuvlari 1488 Eshonkulova Hilola Rajab qizi
	O'quv mashg'ulotlarini tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari..... 1492 Fayziyeva Maftuna Ilxomovna
	Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida bolalarni bilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 1496 Jaloldinova Madinaxon Xojakanovna
	Oliy harbiy ta'lim tizimida kursantlarning psixologik moslashuvi va shaxsiy shakllanishining psixologik omillari..... 1499 Kushbayev Sardor Kenjabayevich
	Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishning samarali usullari 1502 Lola Ibragimova
	Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli 1506 Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna
	4K modeli asosida darslarni tashkil etish..... 1511 Nazarova Mavluda Uktamovna
	Ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishda pedagogik targ'ibotning o'рни..... 1514 Ochilova Dilrabo Ibragimovna
	Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish .. 1517 Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi
	Muhandislik ta'limida texnologik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari 1520 Turayeva Nargiza Nasrullayevna
	Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'рни va ahamiyati..... 1524 Ulug'murodova Nargiza Norovna
	Experimental Justification and Evaluation of the Effectiveness of a Gymnastics Exercise Complex Based on a Differential Approach In The Prevention of Metabolic Syndrome and Overweight In Women of Reproductive Age..... 1528 Urazova Muborak Yuldoshevna
	PIRLS xalqaro tadqiqotida o'qituvchi omilining o'quvchilar natijasiga ta'siri..... 1532 Usmonova Yulduz Abdusaid qizi
	Когнитивные стили обучающихся как ключевой нейропсихологический компонент 1537 Эгамбердиева Фарида Октамовна
	Markaziy Osiyoda dizaynning rivojlanish istiqbollari..... 1540 Abdijalilov Abdivohid Abdihalimovich
	Bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik imkoniyatlar 1544 Yusupova Shaxnoza Qodirjonovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna
	Oliy ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri 1549 Alimova Mavluda Shuxratbekovna
	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi (filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi misolida) 1553 Axadova Shaxnoza Odiljonovna
	Algorithmic Filtering and Social Polarization 1556 Azizova Shodiya Utkur kizi
	Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning huquqiy madaniyatni rivojlantirishmetodlari 1560 Boymirzayeva Raximaxon Xoshimjonovna



Globalashuv sharoitida oilaning an'anaviy qadriyatlari va zamonaviy tendensiyalari nisbati	1565
<i>Ergashova Guljahon Akmal qizi</i>	
Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda (5–6 va 6–7 yosh) kognitiv rivojlanishni tashkil etishda o'yin turlarini tanlashning pedagogik asoslari	1569
<i>Fozilova Odina Nabiyevna</i>	
Tibbiy ta'lim talabalarining amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	1572
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1576
<i>Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich</i>	
“Temurbeklar maktabi” o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirishning samaradorlik darajasi.....	1580
<i>Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali shakllantirishning psixolingvistik masalalari.....	1585
<i>Karimova Dilyora Raximjon qizi</i>	
Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni pedagogik loyihalashtirishda reflektiv yondashuvi turlari	1589
<i>Nurmanov Alisher Shaymardonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qtuvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillastirish.....	1591
<i>Sh. A. Abdullayev</i>	
Tibbiy ta'limda talabalar kognitiv tafakkurini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari.....	1594
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Supichakov Xondamir Xamidovich, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
O'quvchilarda ingliz tilidagi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda tizimli yondashuvning roli.....	1598
<i>Tojiyeva Anora Baxtiyorovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tushunchasi va rivojlanish bosqichlari	1602
<i>Toshboltayeva Malohatoy Valijon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	1605
<i>Turobova Nilufar Umedullayevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda fasilitatorlik sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi.....	1610
<i>Xamidova Sabrina Abduvahob qizi</i>	
Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1615
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini o'stirishda kompyuter o'yinlarining o'rni	1620
<i>Yalgasheva Zilola Haziratkul qizi</i>	
O'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish	1624
<i>Yuvashov Sherzod Ulmasovich</i>	
Формирование лингвокультурной компетенции студентов-филологов в процессе изучения русского языка как неродного	1628
<i>Имомалиев Шукурулло Шухратович</i>	
“Time Management” tushunchasi va oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlik	1631
<i>Sirojova Nafisa Isomiddin qizi</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish: mazmuni va turlari ..	1635
<i>Yusupova Shahnosa Qodirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmonovna</i>	
Birlamchi sogliqni saqlash tizimida oilaviy shifokorni tayyorlashda an'anaviy institutsional yondashuv (adabiyotlar sharhi).....	1639
<i>Abduvaxobova Nozima Raxmanovna, Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna</i>	
Oila shifokorining tibbiy faoliyatining kommunikativ asoslarini rivojlantirish	1643
<i>Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish (adabiyotlar sharhi).....	1652
<i>Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna, Abduvaxobova Nozima Rahmonovna</i>	

O'QUVCHILARDA KREATIVLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Yuvashov Sherzod Ulmasovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
NamDTU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi yoritilgan. Unda interfaol usullar va zamonaviy pedagogik izlanishlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkurini rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, yangi g'oyalarni ilgari surish, muammolarni nostandart yondashuv asosida hal etish hamda o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirishda kreativ fikrlashning psixologik va pedagogik mohiyatiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, ko'nikma, tafakkur, qobiliyat, mohiyat, fikr, tasavvur, ijodkorlik.

Abstract: This article explores the formation of creative thinking skills among students. It analyzes the effective use of interactive methods and modern pedagogical approaches to foster independent and innovative thinking. Particular attention is given to the role of creative thinking in generating new ideas, solving problems through unconventional approaches, and expanding students' intellectual and imaginative capacities.

Key words: creative thinking, skill, cognition, ability, essence, idea, imagination, creativity.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования навыков креативного мышления у учащихся. Анализируется использование интерактивных методов и современных педагогических подходов, направленных на развитие самостоятельного и творческого мышления. Особое внимание уделяется роли креативного мышления в процессе выдвижения новых идей, решении проблем на основе нестандартного подхода и расширении интеллектуальных возможностей учащихся.

Ключевые слова: креативное мышление, навык, мышление, способность, сущность, идея, воображение, творчество.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoiti, istaymizmi-yo'qmi, bizning ishlash va yashash tarzimizni o'zgartirmoqda. Birinchidan, biz globallashish, ifloslanish, moliyaviy inqirozlar yoki yangi epidemiyalar bo'ladimi, butun dunyoga ta'sir qiladigan murakkab muammolarga tobora ko'proq duch kelmoqdamiz. Ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish uchun bizga ijobiy fikrlash va ijodiy g'oyalar kerak. Shaxsiy darajada globallashuv hayotning tobora tezlashib borayotgan sur'atini keltirib chiqaradi. Bizda juda ko'p ma'lumot mavjud, ammo bugun o'rgangan narsalarimiz ertaga osonlikcha eskirishi mumkin. Garchi tez o'zgarishlar ham yangi imkoniyatlar keltirsa-da, endi biz butun dunyo bo'ylab iste'dodli odamlar bilan raqobatlashishimiz kerak. Ushbu muhitda muvaffaqiyat qozonish uchun bizga ishonchli qarorlar qabul qilishga va tezda yangi bilimlarni egallashga yordam beradigan ijodiy fikrlash ko'nikmalari kerak⁽¹⁾.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik insonni fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirgan holda ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining oliy boshqaruvchisi vazifasini bajaradi va uni ezgu amallar tomon yo'naltiradi. Bunday ijodkor inson hamisha borliq bilan uyg'un holda xarakat qiladi. Fransiyalik faylasuf Anri Bergson esa "Ijodni intellektning yuqori bosqichi" deb e'tirof etadi. Olmon mumtoz faylasufi Gegel esa "Ijodiy tafakkur bir butun yaxlit ob'yektlarning bo'laklarga bo'linishidir, deydi. Butunni bo'laklarga bo'lish jarayonida ijodning quvvati, butunni bo'laklarga ajrata olish qobiliyatlari, o'sha bo'laklarning birining ikkinchisi bilan bog'liqligi, aloqadorligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijodiy tafakkurning aqldan farqi shundaki, u eng avvalo yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishni o'zida mujassamlashtiradi" Gegelni bu fikrini tanqid qilib, Daniyalik faylasuf Syoren Kyerkegor uni qarashlarini



haddan ziyod umumlashib ketganligini ko'rsatib o'tadi. Haqiqatdan ham Gegel butunlay umumiylikka o'zini bag'ishlagan edi. Chunonchi. Rafiqasining aytishicha, uni yaxshi ko'rgan ma'lum taomi yo'q bo'lgan. Uning uchun faqat umumiy taom mavjud edi. Gegel qarashlarining mazmun-mohiyati Kyerkegor fikricha, "umuimiy mohiyatlarga qaratilgan, bunda o'ziga xos mavjudlik, individuallik bu yerda tan olinmagan edi". Gegel fikricha, "Ijod qilish odamzodning azaliy fazilatidir. Biroq odamlarning ijodiy izlanishlari shu qadar farqlanishi mumkinki, hatto ular bir-birlariga butunlay zid bo'lishi ham mumkin". Insonni zehni uni aqliy zukkoligi va xotirasining zarur vaqtlarda pand bermasligi bilan bog'liq bo'lib, unda inson tabiat, jamiyat to'g'risidagi fikrlarini o'z-o'zini anglash borasidagi aqliy mushohadalarini izchillik bilan ma'lum bir tartibga soladi. Shu boisdan ham N.A.Shermuhammedova "...fandagi uzluqlik ijodiy jarayon va oldingidan mutlaqo farq qiluvchi yangi bilimning paydo bo'lishida namoyon bo'ladi ^[2]", - deb yozadi.

Tafakkur qilish ko'nikmalari bizning hayotimizga ta'sir qiladi. Bu biz qilayotgan, o'ylaydigan va yaratadigan hamma narsani o'zgartiradi. Tafakkur qilish ilmiy sohalardan tortib muhandislik va san'atgacha – har qanday kasbdagi puxta rejalar, orzular va ixtirolarning ilgari surilishiga poydevor. O'ylab ko'ring, avval hech xayolga keltirmagan yaxshi ishlarni xayolan bajarib ko'ring. Bunda sizga tafakkur yordamga keladi. Tasavvur qiling-a, siz har kungi faoliyatingizni idrok va mushohada orqali rejalashtirsangiz, hayotingiz naqadar mazmunli, boshqalar uchun ham foydali bo'lar edi.

Inson tafakkur qilgani sayin miyadagi "tasavvur mushaklari" shunchalik kuchli bo'ladi. Bu qobiliyat cheksiz imkoniyatlarning boy manbasiga yo'l ochadi. Bugun ma'lumot hajmi oshib, uni saralash, foydalisini tanlash ko'nikmasi ham bevosita idrok bilan bog'liq. Tafakkur har bir kishi uchun, ayniqsa, yetakchilar uchun juda muhimdir. Odamlar hayotini yaxshilashga, muammolarni bartaraf etishga kirishgan inson tafakkuriga suyanadi. Yangiliklar yaratish, hayotni qulaylashtirish uchun esa tasavvur yordamga keladi. Deyarli barcha muvaffaqiyatli odamlarga xos ko'nikma – teran idrok qilish, xayolotdan unumli foydalana olishdir^[3].

"Aqlning chinakam belgisi bilim emas, tasavvurdir" degan edi taniqli olim Albert Eynshteyn. Olim ko'pchilik uchun ijodkor daholarning yorqin timsoli bo'lgan. U nisbiylik nazariyasi orqali fizika fanini manguga o'zgartirib yubordi. Eynshteynda boshqacha – o'ziga xos ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmasi bo'lganini ko'pchilik bilmaydi. Eynshteynning idrok qilishdagi bosh yondashuvi tasavvurni ishga solish va voqelikdan qochish bo'lgan. U hamma narsani tasavvur qiladi. Tasavvur qilib o'rganadi va muammoga ham tasavvur orqali yechim topadi. Shu orqali u bilimlari chegarasini kesib o'tishga muvaffaq bo'ladi. O'zimiz bilgan va ishongan g'oyalardan qochish qanchalik g'alati bo'lmasin, boshqa ehtimoliy yechimlarni topishga ko'maklashadi.

Buning uchun olimning o'ziga xos texnikasi bo'lgan. U buni "tafakkur tajribasi" deb atagan. Bu tajriba uning miyasida sodir bo'lgan. Olimning aytishicha, nisbiylik nazariyasi aynan shu tajriba mahsuli. Tadqiqotchi yorug'likka va uning tezligiga, vaqt bilan bog'liqligiga qiziqar edi. U bu to'g'rida o'ylayotganida o'zini quyosh nuri ustida ketayotgan chavandozdek his qilgan.

Bu ko'pchilik uchun g'ayrioddiy va telbanamo bo'lishi mumkin, ammo kashfiyotchi tasavvuriga shu yo'sinda erkinlik berib, yorug'lik hamda vaqt o'rtasidagi aloqadorlikni topgan. Vaqtini his qilishimiz qayerdamiz va nima qilayotganimizga daxldor. Eynshteyn buni shunday ta'riflaydi: "Yaqin do'stimiz bilan bir soatlik suhbat bir daqiqa tuyulsa, cho'g'ni tutganimizda bir daqiqa bir soatdek tuyuladi".

Ehtimoliy o'ylash o'zini oqlashi uchun biz uni boshdan o'tkazib ko'rishimiz kerak. Ko'pchilik o'ylaganidek, o'ylash – yo'l-yo'lakay yoki bo'sh bo'lgan vaqtda sodir bo'ladigan hodisa emas. Eynshteynning fikricha, inson har kun, muayyan paytda idrok qilish bilan band bo'lishi lozim. Bu jarayon "ijodiy tafakkur" deb nomlanadi. Agar sizni biror muammo yoki masala o'ylantirsa, vaqt ajratib, u to'g'risida tafakkur qiling. Olim ko'z oldida muammo suratini hosil qilib, fikrlashni yaxshi ko'rgan. Uning aytishicha, bu – idrok qilishning samarali yo'lidir.

Shuningdek, kashfiyotchi har qanday muammo yoki masala uzoq o'ylansa va tashlab qo'yilmasa, oxir-oqibat yechimini topishiga ishongan. "Men oylab, yillab o'ylab yurar edim. Xulosalar 99 foiz asossiz bo'lib chiqar, oxir-oqibat yuzinchi marta yechimni topar edim[4]", – deydi olim.

Jahondagi eng boy kompaniyalarga nazar tashlang. Yetakchi o'nlikda turgan kompaniyalar, asosan, inson aqli evaziga rivojlanmoqda va boyimoqda. Ular bilan birga davlatlar ham taraqqiy etmoqda. O'tgan asrlarda esa eng boy kompaniyalar neft, gaz, ishlab chiqarish kabi yirik sanoatlardan foyda ko'rgan. Bugun esa hammasi o'zgarib, xomashyo sarf qilmasdan turib ham boyish va rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Bugungi taraqqiyot zamonida biror ishda muvaffaqiyat qozonish uchun o'tgan asrdagi kabi bilimli bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bugun har qaysi yo'nalishda muvaffaqiyat qozonish uchun quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishimiz zarur.

Kreativlik – ijodkorlik, ijodiy yondashuv ko'nikmasidir. Jahondagi barcha muvaffaqiyatli insonlar, biznesmenlardan tortib rassomlargacha mazkur ko'nikma sabab ko'zga ko'ringanlar. Kreativlik – bu hali noaniq narsani noan'anaviy, o'ziga xos tarzda tasavvur qilishni anglatadi. Misol uchun, rassom va haykaltarosh Mikelanjelodan o'z asarlarini qanday qilib bu qadar shukuhli va mukammal yaratishini so'rashganida, u shunday javob bergan: "Men har gal ijod jarayoniga kirishar ekanman, ulkan marmar ichida qamalib qolgan qahramonlarni ko'raman va ularni ozod qilishni istayman". Ijodiy fikrlash g'oyalarni rivojlantiradi, g'oyalar esa o'zgarishlarni ilhomlantiradi.

Ijodiy fikrlash yangi g'oyalar orqali odamlar hayotini yaxshilash, insonlar va imkoniyatlarni bir-biri bilan bog'lash, ya'ni uyg'unlikka keltirish degani. Bu borada omadi chopgan odamlardan muvaffaqiyatlarining sirini so'rasangiz, ular bor-yo'g'i boshqalar e'tibor qaratmagan nimagadir diqqat qilishganini aytishadi. Ular aslida yig'ilgan tajribani jamlab, bilimlarni o'zaro bog'lay olganlar. Ular muvaffaqiyatsizlikka boshqalardan ko'proq diqqat qilganlar. O'z sohasida yetakchi insonlar hamda bu insonlarga ergashuvchilar o'rtasidagi yagona farq – innovatsiya, ya'ni ilg'or fikrdir. Muvaffaqiyatsizlikka uchramay turib, yangilik yaratib bo'lmaydi. Ijodiy yaratuvchanlik yangi g'oyalarni o'ylash, innovatsiya – ilg'or ishlarni amalga oshirishdir. Buni uddalash uchun muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmaslik kerak.

Kreativ tafakkur zehn, iste'dod va qobiliyatni ma'lum bir me'yorda namoyon bo'lishining dastlabki uchqunlari yoshlarning iqtidori orqali aks etadi. Bunday iqtidorli yoshlarni o'z vaqtida ilg'ab olgan holda ularni kasbga to'g'ri yo'naltirish yaxshi samara beradi, albatta. Bu xususida buyuk Sharq mutafakkiri Imom G'azzoliy ham o'zining "Ihyou ulum ad-din" (Din ilmlarini jonlantirish) asarida inson aqlining o'ziga xosligi xususida fikr yuritib shunday degan edi: "Aql zaruriy ilmlarning bir qismidir. Joiz narsalarni joiz, mahol narsalarni mahol bilish kabi va u yana aslida durust, chunki bu ilmlar mavjuddir. Zohir ham aql deb nomlanadi. Ammo bu g'arizani inkor etish, faqatgina ana shu ilmlar mavjud deyish fosidlikdir^[5]".

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davr ilm-fani xulosasi va hisob-kitobiga ko'ra insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida atigi 300 ga yaqin kishi daxolar sifatida e'tirof etilgan. Jamiyatda bunday toifa insonlarni miqdor va sifatini ko'paytirish uning buguni va kelajagini yanada nurafshon bo'lishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xullas, kreativ tafakkur tabiat, jamiyat va insonni o'z-o'zini isloh qilishiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi. Kreativ tafakkur birinchi navbatda gnoseologik vazifani bajaradi. Ya'ni inson o'zining ijodiy tafakkuri orqali o'zi yashayotgan dunyoni bilishga, voqelikni butunligicha idrok qilishga intiladi. Insonni hissiy a'zolari orqali olingan dunyo to'g'risidagi axborotlarni jamlagan xolda fikr mushohada yuritadi. Bu jarayon inson kreativ tafakkuri gnoseologik vazifasini keng ma'noda talqin etish bo'lsa, tor ma'noda esa insonlar o'z ijodiy salohiyati orqali voqelik, predmet yoki xodisa to'g'risida mustahkam bilimga ega bo'lish, tasavvur, idrok, sinchkovlik va aqliy zukkolik asosida mavjud bilimlarga tanqidiy yondashib, kerakli xulosa chiqarish kabilarni o'z ichiga oladi.

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerkarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" - deb ta'rif beradi^[6].

Ko'p olimlar shuni tan oladilarki, ularning aksariyati biror masalaning yechimini izlayotganda bir joyda o'tirmas, balki albatta harakatda bo'lib turishi kerak. Qachonki bizning tanamiz harakatda bo'lsa, shunda aqlimizga muammolar yechimi oson keladi. Fikr tug'ilishi uchun ongda bor obraz (model)ning hech bo'lmaganda ikkitasi qo'zg'alishi zarur. Miya har qanday fikrni u yoki bu aniq kodli shaklga soladi. Turli odamlarda ko'rish, eshitish, so'z, harf, raqam va boshqa kodlardan foydalanish qobiliyati har xil. Ma'lumotlarni kodlash aks ettirilayotgan hodisa mazmuni va tuzilishiga muqobil bo'ladi. San'atda va adabiyotda maxsus "kodlash" orqali mazmun yoritiladi. Masalan, mumtoz adabiyotda miya konkret kod orqali g'oya yaratadi. Agar odam ko'rgazmali-obrazli tasavvurlardan foydalanishga moyil bo'lsa, ko'rib idrok qilishi kuchli bo'ladi. Akustik-obrazli tasavvurning ustunligi musiqiy fantaziyadan darak beradi. Borliqni so'z-obrazlar shaklida o'zlashtirishga moyillik shoirlik fantaziyasini xarakterlaydi. Lekin bu - odamni rassom, kompozitor yoki shoir qilib qo'ymaydi. Bu kasblar qobiliyat, ko'nikmalarning yaxlit kompleksini, shuningdek, qobiliyatlarni yo'naltirishga yordam beruvchi shaxsiy sifatlarni talab qiladi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, "yaratish" ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi^[7].

Shunga ko'ra kreativlik ko'nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari mavjud.

Birinchi yo'l - kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, o'quvchilar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o'quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qarata-dilar. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, o'quvchilardan "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bering" mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi "ta'riflab



bering" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting" deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda o'quvchilarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo'lga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, "bog'liqlikni toping", "yarating", "bashorat qiling", "fikrni mantiqan bayon eting", "tasavvur qiling" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Ikkinchi yo'l – amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadilar. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, u o'quvchilarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

Uchinchi yo'l – kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yo'lda o'quvchilarni muammoni yechish va innovasion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beriladi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, o'quvchilarda "Yurak va qon aylanishi tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni toppish" topshirig'ini bajarar ekanlar, odamning qon aylanishi tizimi bilan bog'liq turli muammolarni tahlil qiladilar. Natijada ushbu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi.

To'rtinchi yo'l - kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog o'quvchilarga "Odamning qon aylanish tizimi" mavzusida Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi. O'quvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar o'quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qo'rqisalar, bunday vaziyatda ular kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi^[8].

O'quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi fe'llarni (birinchi yo'lni) qo'llashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (uchinchi yo'l) ustida ish olib borayotgan o'quvchilarni kreativ fikrlash strategiyalari (ikkinchi yo'l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (to'rtinchi yo'l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi^[8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativ fikrlash ko'nikmasini mashq qildirish natijasida o'quvchilar faqatgina o'rnatilgan aloqalarga tayannibgina qolmay, balki miyada yangi, ma'noga boy aloqalarni o'rnatish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo'ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo'ladi. Inson miyasi doimo to'g'ri ishlashga odatlangan, ya'ni miya uchun faqat birgina to'g'ri javob mavjud bo'ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas.

Kreativlik – o'quvchilarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun talabalar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim. Talabalarning kreativlik qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, ular kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va o'quvchilar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida to'g'risidagi PF-60-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022y., 28.01. www.lex.uz.
2. N.A. Shermuhamedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. -T.: "Fan va texnologiya", 2014
3. Stanovich, K. E. (2016). The Comprehensive Assessment of Rational Thinking. Educational Psychologist, 51, 23-34. Stanovich_EdPsy_2016.pdf
4. Tarbiya 9 darslik / Sh. Sattorov – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – 128 b.
5. Имом Фаззолий., Ихёу улумид-дин. Тафаккур китоби. "Тошкент ислом университети" нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент – 2007
6. D. I. Muqumova., Yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish istiqbollari, Published August 10, 2022 | Version pdf.
7. Sh.Yuvashov, B.Akbarov., Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2024. – 176 b.
8. Yuvashov, Sherzod Ulmasovich. „Developing Creative Skills in Students.“ International Conference on Innovation and Science. Vol. 1. No. 1. 2025.
9. Ulmasovich, Yuvashov Sherzod. "Noodatiy fikrlash ko'nikmalari shakllantirish." InnoRes 1.2 (2025): 155-159.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.